

## 2020-yil yanvar-iyun oylarida asosiy kapitalga investitsiyalar

2020-yil yanvar-iyun oylarida viloyatda asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar 4011,2 mlrd. soʻm hajm oʻzlashtirilib, oʻtgan yilning mos davriga nisbatan oʼsish surʼati 110,5 % ni tashkil etdi.



### Moliyalashtirish manbalari boʻyicha asosiy kapitalga investitsiyalar

	Jami, mlrd. soʻm	oʼsish surʼati, % da	jamiga nisbatan, % da
--	---------------------	----------------------------	-----------------------------

Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar

4011,2

110,5

100,0

shu jumladan:

Markazlashgan investitsiyalar: 583,1 66,0 14,5


Byudjet mablagʼlari 386,2 81,5 9,6

Suv taminoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantitish 108,5 133,6 2,7

Tiklanish va taraqqiyot fondi mablagʼlari - - -

	<i>Jami, mlrd. so'm</i>	<i>o'sish sur'ati, % da</i>	<i>jamiga nisbatan, % da</i>
Hukumat kafolati ostida chet el kreditlari	88,4	39,4	2,2
<b>Markazlashmagan investitsiyalar:</b>	<b>3428,1</b>	<b>124,8</b>	<b>85,5</b>
Korxona mablag'i	1336,0	3,3 m	33,3
Aholi mablag'i	374,0	96,7	9,4
To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiya va kreditlar	1537,2	95,5	38,3
Tijorat bank kreditlari va boshqa qarz mablag'lar	180,9	52,3	4,5


**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar  
2020-yil yanvar-iyun (*jamiga nisbatan, % da*)**



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar o'zlashtirigan asosiy qismi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida - 624,3 mlrd. so'm yoki jami investitsiyalar ulushinig 15,6 %, ishlab chiqarish sanoatida - 1667,8 mlrd. so'm (41,6 %), qurilish - 361,1 mlrd. so'm (9,0 %), ulgurji va chakana savdo - 140,4 mlrd. so'm (3,5 %), turar joy binolari qurilishiga - 291,0 mlrd. so'm (7,3 %) va boshqa faoliyat turlariga 926,6 mlrd. so'm (23,0 % ini) tashkil etdi.


### **Markazlashgan investitsiyalar manbalari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar**

**2020-yil yanvar-iyun (jamiga nisbatan, % da)**



## Markazlashmagan investitsiyalar manbalari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar

2020-yil yanvar-mart (*jamiga nisbatan, % da*)



Asosiy kapitalga investitsiyalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibida yuqorida ta'kidlab o'tilganidek ishlab chiqarish sanoati yetakchilik qilmoqda. Ushbu faoliyat turida jami moliyalashtirish manbalari hisobidan 1667,8 mlrd. so'm yoki jami asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning 41,6 % o'zlashtirilgan, turar joy binolari qurilishiga 291,0 mlrd. so'm yoki jami investitsiyalarning 7,3 % i turar joy binolari qurilishi uchun yo'naltirilgan.




**Shahar va tumanlar kesimida  
asosiy kapitalga investitsiyalar  
2020-yil yanvar-iyun**

	<i>Jami, mlrd. soʻm</i>	<i>oʼsish surʼati, % da</i>	<i>jamiga nisbatan, % da</i>
<b>Jizzax viloyati</b>	<b>4011,2</b>	<b>110,5</b>	<b>100,0</b>
Jizzax sh.	863,5	111,1	21,5
<b>tumanlar:</b>			
Arnasoy	160,3	107,4	4,0
Baxmal	108,2	105,6	2,7
G’allaorol	86,6	107,9	2,2
Sh.Rashidov	156,0	105,4	3,9
Doʼstlik	47,3	104,2	1,2
Zomin	296,2	107,6	7,4
Zarbdor	168,1	104,7	4,2
Zafarobod	385,2	102,7	9,6
Mirzachoʻl	181,5	104,1	4,5
Paxtakor	149,7	105,2	3,7

Forish	1 374,6	117,7	34,3
Yangiobod	34,0	111,0	0,8

**Shahar va tumanlar kesimida  
asosiy kapitalga investitsiyalar  
( jamiga nisbatan, % da)**




Viloyat bo'yicha asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning eng yuqori ulushi Forish tumaniida 34,3 % (hajmi 1374,6 mlrd. so'm) o'zlashtirilgan bo'lib, o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati 117,7 % ni tashkil etdi. Bunga Forish tumani bo'yicha 2020-yil uchun manzilli dasturga kirilgan loyihalar asosida o'zlashtirilgan investitsiyalar,

ijtimoiy soha ob'yektlariga yo'naltirilgan investitsiyalar hajmining o'tgan yilga nisbatan yuqori o'sish sur'atlariga erishilganligi sabab bo'ganligini ta'kidlash joiz.

**Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning  
texnologik tarkibi  
2020-yil yanvar-iyun**


	Jami, mlrd. so'm	shu jumladan: jamiga nisbatan, % da	
		Davlat	Nodavlat
<b>Jami investitsiyalar</b>	<b>4011,2</b>	<b>677,3</b>	<b>3333,9</b>
<i>shu jumladan:</i>			
Qurilish-montaj ishlari	1001,0	333,4	667,6
Mashina, uskunalar va xo'jalik jihozlari	2870,2	329,7	2540,5
Boshqa harajatlar	140,0	14,2	125,8

**Asosiy kapitalga investitsiyalarning texnologik tarkibi,  
(jamiga nisbatan, % da)**



Viloyat bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalarning texnologik tarkibi investitsiyalarning qariyb 71,5 % ulushi mashina, uskunalar, transport vositalari ishlab chiqarish va xo'jalik jihozlariga to'g'ri keldi.

**Asosiy kapitalga kiritilgan xorijiy investitsiya va kreditlar  
2020-yil yanvar-iyun (jamiga nisbatan, % da)**



Joriy yilning yanvar-iyun oylarida asosiy kapitalga viloyat miqyosida xorijiy investitsiya va kreditlar 1625,6 mlrd. so'm investitsiyalar o'zlashtirilib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 88,6 foizni tashkil etdi.

**Asosiy kapitalga kiritilgan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar**

Joriy davrda 429,3 mlrd. so'm to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar o'zlashtirilgan bo'lib, jami xorijiy investitsiya va kreditlarlarning 26,4 % ulushini tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 48,7 foizni tashkil etdi.

**Asosiy kapitalga kiritilgan  
xorijiy investitsiya va kreditlar**

mlrd. so‘mda

	жами	shu jumladan:	
		davlat kafolati ostida	to‘g‘ridan- to‘g‘ri va boshqalar

**Asosiy kapitalga xorijiy  
investitsiya va kreditlar**

1625,6 88,4 1537,2

*shu jumladan:*

<i>davlat</i>	2,9	2,9	-
---------------	-----	-----	---

*nodavlat* 1622,7 85,5 1537,2**Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha  
asosiy kapitalga investitsiyalar**

(mlrd. so‘m)

	2019-yil yanvar- iyun	jamiga nisbatan, % da	2020-yil yanvar- iyun	jamiga nisbatan, % da

*Jami* 3187,9 100,0 4011,2 100,0*shu jumladan: iqtisodiy  
faoliyat  
turlari bo‘yicha:**qishloq, o‘rmon va baliq  
xo‘jaligi* 801,8 25,2 624,3 15,6

	2019-yil yanvar- iyun	jamiga nisbatan, % da	2020-yil yanvar- iyun	jamiga nisbatan, % da
<i>Tog‘-kon sanoati</i>	34,9	1,1	411,0	10,2
<i>Ishlab chiqarish sanoati</i>	1078,9	33,8	1667,9	41,6
<i>Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’mirlash va havoni konditsiyalash</i>	32,2	1,0	23,6	0,6
<i>Suv bilan ta’mirlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish</i>	126,0	4,0	190,0	4,7
<i>Qurilish</i>	121,4	3,8	361,1	9,0
<i>Ulgurji va chakana savdo, motorli transport vositalari, mototsikllarni ta’mirlash</i>	50,3	1,6	140,4	3,5
<i>Tashish va saqlash</i>	61,4	1,9	33,4	0,1
<i>Yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar</i>	11,4	0,4	3,8	0,1
<i>Axborot va aloqa</i>	18,7	0,6	36,5	0,9
<i>Moliyaviy va sug‘urta faoliyati</i>	4,8	0,2	13,4	0,3
<i>Professional, ilmiy va texnik Faoliyat</i>	24,3	0,8	17,8	0,4
<i>Ta’lim</i>	77,8	2,4	63,1	1,6

	<i>2019-yil yanvar- iyun</i>	<i>jamiga nisbatan, % da</i>	<i>2020-yil yanvar- iyun</i>	<i>jamiga nisbatan, % da</i>
<i>Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish</i>	49,4	1,5	37,5	0,9
<i>Boshqa iqtosodiy faoliyat turlaridan tashqari: turar – joy binolari qurilishiga investitsiyalar</i>	445,2	14,0	291,0	7,3
<i>San'at, ko'ngil ochish va dam olish</i>	27,0	0,8	10,4	0,3
<i>Boshqa faoliyat turlari</i>	222,4	6,9	86,0	2,9


### Ijtimoiy soha ob'yektlari

2020-yilning yanvar-iyun oylarida umumiy maydoni 318,0 ming kv.m bo'lgan 1961 ta uy yoki 2181 ta kvartira (2019 yilning yanvar-iyuniga nisbatan 89,6 %), shu jumladan qishloq joylarida 193,8 ming kv.m (77,6 %) 1365 ta uy–joy foydalanishga topshirildi.



## Foydalanishga topshirilgan turar joylar (ming kv.m)

(2020-yil yanvar-iyun oylari)



Viloyatda eng ko'p turar joylar qurilishi Sharof Rashidov tumanida uylar soni 293 tani, qurilish osti maydoni 38,0 ming kv.m hamda Forish tumanida uylar soni 74 tani, qurilish osti maydoni maydoni 32,4 ming kv.m turar-joy uylari joriy yilda foydalanishga topshirildi.



**Investitsiyalar va qurilish  
statistikasi bo'limi**  
**Mas'ul shaxs:**  
**Aloqa telefoni:**

**Mullajonov D.  
(99872) 221-53-73**